



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 20-fevral, № 35 (9206)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



XALQARO BIRDAMLIK VA TINCHLIK YO'LIDAGI UMUMIY INTILISHNING YORQIN IFODASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 17 – 19-fevral kunlari Tinchlik kengashining dastlabki yig'ilishida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Vashington shahrida bo'ldi.



Davlatimiz rahbari 19-fevral kuni Vashington shahrida Tinchlik kengashining dastlabki yig'ilishida ishtirok etdi.

AQSh Prezidenti Donald Tramp raisligida o'tkazilgan tadbirda Ozarbayjon, Qozog'iston, Bahrayn, Indoneziya, Argentina, Paragvay, Ruminiya, Misr, Qatar, Pokiston, Vengriya, Albaniya, Armaniston, Vyetnam, Kambojda, BAA, Turkiya, Kuvayt, Saudiya Arabistoni, Isroil,

Marokash va boshqa davlatlar delegatsiyalari rahbarlari ham qatnashdi.

G'azo sektorini qayta tiklash va gumanitar yordam ko'rsatish, shuningdek, mintaqada tinchlik hamda barqarorlikni ta'minlash masalalari muhokama qilindi.


Davlatimiz rahbari o'z nutqida dastlabki sammitni chaqirgani uchun Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti, Tinchlik kengashi raisi Donald Trampga minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston Tinchlik kengashini tuzish

bo'yicha tinchliksevar tashabbusni qo'llab-quvvatlagani va uni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishda amaliy ishtirok etishini qat'iy tasdiqlagani ta'kidlandi.

– Ishonchim komil, Kengash ishi G'azo mintaqasini iqtisodiy va ijtimoiy qayta tiklash uchun qulay sharoit yaratishga imkon beradi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

G'azoning har qanday tashqi boshqaruv mexanizmi sektor aholisining so'zsiz ichki qo'llab-quvvatlashiga tayanishi lozimligi ta'kidlandi.



Barcha tomonlarning muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlari G'azoni tez fursatda qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, mojarodan keyingi jarayonlarni barqarorlashtirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston ushbu hududda turarjoylar, bolalar bog'chalari, maktab va kasalxonalar barpo etishga imkon qadar hissa qo'shishga tayyorligini qayd etdi.

– Bizning uchrashuvimiz xalqaro birdamlik, tinchliksevarlik va Yaqin Sharqdagi vaziyatni yaxshilashga bo'lgan umumiy intilishimizning yorqin ifodasidir. Biz Yangi G'azoni – iqtisodiyoti farovon, aholi uchun munosib turmush sharoitlariga ega bo'lgan mintaqani barpo etish uchun ushbu tarixiy imkoniyatdan foydalanishimiz zarur, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tadbirda boshqa xorijiy mamlakatlarning davlat, hukumat va

tashqi siyosiy idoralari rahbarlari ham so'zga chiqdilar.

Yig'ilish yakunida Tinchlik kengashi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi deklaratsiya imzolandi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlariga amaliy tashrfi yakunlandi.

O'Z.A.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TINCHLIK KENGASHINING BIRINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Muhtaram Donald Tramp Janobi Oliyarlari!
Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Avvalambor, Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp Janobi Oliyarlarga Tinchlik kengashining inauguratsiya majlisini tashkil etgani uchun chin dildan minnatdorlik izhor etaman.

Hech shubhasiz, bugungi sammit bu Prezident Trampning siyosiy irodasi va pragmatizmi natijasidir.

O'zbekiston Tinchlik kengashini tuzish bo'yicha tinchliksevar tashabbusni qo'llab-quvvatlashi va uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi borasida o'zining amaliy ishtirokini qat'iy bayon etdi.

Ishonchim komil, Kengash ishi G'azo mintaqasini iqtisodiy va ijtimoiy qayta tiklash uchun qulay sharoit yaratishga imkon beradi.

Shu bilan birga, G'azoning har qanday tashqi

boshqaruv mexanizmi sektor aholisining so'zsiz ichki qo'llab-quvvatlashiga tayanishi lozim.

Barcha tomonlarning muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlari G'azoni tez fursatda qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, mojarodan keyingi jarayonlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlab aytamanki, O'zbekiston ushbu

hududda turarjoylar, bolalar bog'chalari, maktab va kasalxonalar barpo etishga imkon qadar hissa qo'shishga tayyor.

Hurmatli do'stlar!
Ushbu sammit Donald Tramp nomidagi Tinchlik institutida o'tkazilayotganida ramziy ma'no mujassam.

Bizning uchrashuvimiz xalqaro birdamlik,

tinchliksevarlik va Yaqin Sharqdagi vaziyatni yaxshilashga bo'lgan umumiy intilishimizning yorqin ifodasidir.

Biz Yangi G'azoni – iqtisodiyoti farovon, aholi uchun munosib turmush sharoitlariga ega bo'lgan mintaqani barpo etish uchun ushbu tarixiy imkoniyatdan foydalanishimiz zarur.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Sayyor majlis

KORRUPSION XAVF-XATARLARNI BARVAQT ANIQLASH – DOLZARB VAZIFA

Kuni kecha Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanida sayyor majlisi bo'lib o'tdi.

Unda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva, milliy va hududiy kengashlar hamda Yoshlar parlamenti a'zolari, xalq deputatlari Samarqand viloyati va tuman (shahar) Kengashlari deputatlari, vazirlik va idoralar, viloyat hokimligi rahbarlari, shuningdek, jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Kun tartibi doirasida Samarqand viloyatida korruptsiyaga qarshi kurashish, jinoyatchilikning oldini olish va kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, hududda iqtisodiy faollik, qurilish, tadbirkorlik va xizmatlar sohasi jadal rivojlanib borayotgani bilan birga, ushbu jarayonlarda korruptsiya xavf omillarini barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish dolzarb vazifa hisoblanadi. So'zga chiqqanlar korruptsiyaga qarshi kurashishda tizimli, ochiq va raqamlashtirilgan boshqaruv

mexanizmlarini keng joriy qilish muhimligiga e'tibor qaratdi. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan yig'ilishlarda korruptsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi hududlarda so'zsiz ta'minlanishi lozimligiga urg'u berildi. Uyushgan jinoyatchilik, "yashirin iqtisodiyot" hamda kibernetik jinoiyatlar qatnashib borayotgani bilan birga, ushbu jarayonlarda korruptsiya xavf omillarini barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish dolzarb vazifa hisoblanadi. So'zga chiqqanlar korruptsiyaga qarshi kurashishda tizimli, ochiq va raqamlashtirilgan boshqaruv



O'zbekiston va Tojikiston:

PARLAMENTLARARO ALOQALAR YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Tojikistonning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Nasredin Ismatulloni qabul qildi.

Muloqot

Elchi samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirir ekan, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda barcha jabhada olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, demokratik yangilanishlar va parlamentarizmni rivojlantirish sohasidagi islohotlarni yuqori baholadi.

– 2016-yildan buyon ikki davlat Prezidentlarining oqilona siyosati tufayli mamlakatlarning o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat

mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash va xalqaro maydonda hamkorlikni kengaytirishga hissa qo'shmoqda, – dedi N. Ismatullo. Konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirish yuzasidan ham fikr almashildi. Do'stlik guruhlarining rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish, parlament qo'mitalari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish kun tartibidagi muhim masalalardan biri ekani ta'kidlandi. Uchrashuv ochiq va do'stona ruhda o'tdi.

"Xalq so'zi".

Barhayot
an'analar

MAHALLA – HAMJIHATLIK MASKANI

Mahalla rivojlangan, jamiyat yuksaladi. Jahonda andozasi bo'lmagan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishining bunday tuzilmasiga e'tiborni yangi bosqichga olib chiqish orqali kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, muhtojlarga muruvvat singari xalqimizning bebaho qadriyatlarini yanada saqlab topadi.

El ravnaqi yo'lida amalga oshirilayotgan har bir xayrli sa'y-harakatlarda yoshu qari, fidoyi va tashabbuskor fuqarolarning faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu ma'noda mahalla faqat hudud emas, balki insonni inson qiladigan tarbiya maktabi, ma'naviyat va ahilik maskanidir.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'analarimiz xalqimizning kimligini, uning ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi beqiyos boylikdir. Asrlar davomida asrab-avaylab kelinayotgan ana shu odob-axloq, bir-biriga yelkadoshlik, mehr-oqibat kabi qadimiy urf-odatlar bugungi e'tibor va g'amxo'rliklar tufayli yanada

ravshan namoyon bo'lib, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazilmoqda.

"Mahalla – hamjihatlik maskani" sahifamizda mahallada milliy qadriyat va an'analarga umrbodiylik bag'ishlab yashayotgan zargaru hunarmandlar, kashado'zu sohibkirlar, umuman olganda, mahalla faollariga minbar berildi.

4-sahifaga qarang.



KUZATUVCHI EMAS, ISHTIROKCHI BOʻLISHIMIZ ZARUR

Dunyo miqyosida yuz berayotgan global iqlim oʻzgarishi, suv tanqisligi va ekologik inqirozlar barcha davlatlar oldida yangi, murakkab vazifalarni qoʻymoqda. Bu kabi global inqirozlar mamlakatimizni ham chetlab oʻtayotgani yoʻq. Shu sababli, bu borada jiddiy islohotlar amalga oshirilib, ekologik barqarorlikni taʼminlash, “yashil” iqtisodiyotga oʻtish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi uchun qulay ekologik muhit yaratish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi sifatida belgilandi.

Dolzarb mavzu

Ekologik barqarorlikning muhim omillaridan biri sifatida hududlarni koʻkalamzorlashtirish, daraxtlarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish, ularni saqlab qolish borasida tizimli choralar koʻrilmogʻda.

Xususan, oʻrmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga qarshi muddatsiz davrga moratoriy eʼlon qilinishi bilan birga, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million koʻchat ekish yoʻlga qoʻyildi.



Shuningdek, yashil darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish, aholining salomatligini yaxshilash, tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni taʼminlash yoʻnalishida ham keng koʻlamli ishlar yoʻlga qoʻyilmogʻda.

Amalga oshirilayotgan ishlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun hozirda sohaga oid 30 ga yaqin

yangi qonunlar hamda salkam 300 ta qonunosti meʼyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 15 dan ziyod konvensiya, xalqaro protokollar hamda kelishuvlar imzolandi va ratifikatsiya qilindi.

Agar dunyo miqyosida tahlil etadigan boʻlsak, ekologik inqirozlar suv tanqisligi misolida yaqqol namoyon boʻlmogʻda. Bu esa mamlakatimizda ham suv resurslaridan samarali foydalanishni taʼminlash, tarmoq va sohalarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, shuningdek, sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash boʻyicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishini taqozo etmogʻda. Chunki Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligida suv sarfining yuqoriligi va eski infratuzilmaning mavjudligi rost va u muammoni yanada keskinlashtirmogʻda.

Shu bois tomchilatib sugʻorish, raqamli hisobga olish tizimlari, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Tejamkor texnologiyalarni keng oʻllash, suv inshootlarini modernizatsiyalash, sugʻorish tadbirlari boʻyicha kelgusi uch yil uchun

qiymati 5,5 mlrd. dollarlik katta dastur qabul qilindi. Uning doirasida suvni tejaydigan texnologiyalar qamrovi 61 foizga yoki 2,6 mln. gektarga yetkazilishi natijasida yiliga 2,5 mlrd. kub metr suvni tejab, 200 ming tonna bugʻ gazini kamaytirish koʻzlangan.

Joriy yilda ushbu tadbirlarga jami 3 trln. 300 mlrd. soʻm yoʻnaltirish nazarda tutilgan. Suv sarfining koʻpayishida ochiq hamda beton qoplamalarga ega boʻlmagan kanal va ariqlarning ham sezilarli hisssasi bor. Shu sabab yirik magistrall kanallarni beton bilan qoplash, joylardagi ochiq drenaj va kollektorlarni yopiq tizimga oʻtkazish boʻyicha alohida dastur qabul qilinishi suvni tejashda muhim omil vazifasini oʻtadi.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida belgilangan beshinchi ustuvor yoʻnalish aynan atrof-muhitni muhofaza qilish, “yashil” energetikani rivojlantirish va suv resurslarini samarali boshqarish masalalariga qaratilgani eʼtiborga molik. Zero, ekologik muvozanat – bu nafaqat

tabiatni asrash, balki aholi salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash demakdir.

Murojaatnomada qayta tiklanuvchi energiya manbalarini jadal rivojlantirish strategik vazifa sifatida belgilab berildi. Chunki quyosh va shamol energetikasi atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlarni kamaytirish bilan birga energetik mustaqillikni ham mustahkamlaydi.

Taʼkid shuki, tabiatni muhofaza qilish ishlarda har birimiz kuzatuvchi emas, ishtirokchi boʻlishimiz eng muhim masala. Bobolardan meros, farzandlarimizdan qarzimiz – ona tabiatni asrash, ekologiya va aholi salomatligini saqlash bilan bogʻliq dolzarb muammolarni hal etish hamda kelajak avlodlarning muassifo muhitida yashash huquqini kafolatlash ishlari faol ishtirok muqaddas burchimiz ekanini unutmashimiz lozim.

Sayyora ABDIKARIMOVA,
Oliy Majlis Senatining
Agrar, suv xoʻjaligi masalalari
va ekologiya qoʻmitasi raisi
oʻrinbosari.

“ISHONCH” – ZAMONAVIY FORMATDAGI MARKAZ

Xizmatlar sohasini rivojlantirish aholi bandligini taʼminlash, mehnat unumdorligi va kundalik hayot sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Denov tumanida zamonaviy yondashuv asosida tashkil etilgan “Ishonch” ijtimoiy va maishiy xizmatlar markazi faoliyati buning yorqin dalilidir.

Qulaylik

Yangi innovatsion loyiha doirasida aholiga koʻplab xizmat turlari yagona markaz orqali taklif qilinmogʻda. Kunlik mehnatga ischi yollash, elektrchi, santexnik, payvandchi, pardoz ustasi xizmatlari, dezinfeksiya va sanitariya, ofis hamda xonadonlarni tozalash, barcha turdagi uy xoʻjaligi ishlari, shuningdek, xonadonlarni toʻliq taʼmirlash xizmatlari ana shular jumlasidan.

Markazning qulay jihatlaridan biri – “1419” qisqa raqamli Call-markaz orqali buyurtmalar qabul qilinadi. Murojaatlar mazmuniga qarab tegishli mutaxassislar tomonidan tezkor ravishda



manziliga yoʻnaltiriladi. Bu esa mijoz va ijrochi oʻrtasida samarali aloqa oʻrnatilib, xizmatlarning sifati hamda oʻz vaqtida bajarilishini taʼminlaydi.

Eʼtiborlisi, “1419” qisqa raqami Surxondaryo viloyatining barcha hududida faoliyat koʻrsatib, aholiga arzon, sifati va kafolatlangan xizmatlar taqdim etilmogʻda.

Farhod ESONOV
(“Xalq soʻzi”).

“YANGI QOʻQON” – KOʻRKAM MAJMUA

Qoʻqon shahrining “Aziztepa” mahalla fuqarolar yigʻini hududida qad rostlayotgan “Yangi Oʻzbekiston” massivi tarkibidagi “Yangi Qoʻqon” majmuasida 56 ta koʻp qavatli uy qurilishi yakuniga yetkazilmogʻda. Yaqin kunlarda ushbu majmuada foydalanishga topshiriladigan qariyb 4 400 ta xonadonda uy toʻylari oʻtkaziladi.

Bunyodkorlik

Bugungi kunda qurilish jarayonlarida qator yangiliklar joriy etilib, innovatsion gʻoyalardan unumli foydalanilyapti. Misol uchun, xavfsizlik va zilzilabardoshlikni taʼminlashda Turkiya tajribasi qoʻllanilayotir.

Majmuadagi ipoteka markazida amaliyotga tatbiq qilingan yana bir yangilikka koʻra, uy xaridida qurilish tashkiloti umuman ishtirok etmaydi. Yangi uy xaridor va bank oʻrtasidagi kelishuv asosida rasmiylashtiriladi.

Oʻz navbatida, yangi massivda aholi uchun munosib yashash sharoitlari, zamonaviy

va qulay infratuzilma bunyod etishga alohida urgʻu berilmogʻda. Landshaft arxitekturasida yashil hududlar, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari tashkil qilinib, toza havo va barqaror ekologik muhit yaratish ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgani eʼtiborga molik.

Shahrimizda qurilish sohasida istiqbolli loyihalar koʻlami tobora ortib bormogʻda, – deydi Qoʻqon shahar hokimi oʻrinbosari Aziz Sulaymonov. – Yaqinda xitoylik investorlar ishtirokida muhtasham savdo kompleksi, mehmonxona, koʻp qavatli turarjoy binolari qurilishi boshlanishi rejalashtirilgan.

Botir MADIYOROV
(“Xalq soʻzi”).

“Yashil” energetika

Xalqaro energetika agentligi (IEA)ning tahlillariga qaraganda, jahonda iqtisodiyot tarmoqlari va aholining elektr energiyasiga ortib borayotgan talabini qondirishda “yashil” energetika asosiy quvvat manbaiga aylanmogʻda. Bu energiya hosil qiladigan neft, tabiiy gaz, koʻmir singari uglerod zaxiralari tobora kamayib ketayotgani bilangina izohlanmaydi. Aksincha, ularni elektr energiyaga aylantirishda ekologiyaga putur yetayotgani sohadagi siyosatni oʻzgartirishni taqozo qilayotir. Qayta tiklanuvchi energiya esa ekologik tozaligi bilan ustunlikka ega. Shu bois oxirgi oʻn yillikda uning jahon energetikasi tarkibida ulushi keskin oshib ketdi.

EKOLOGIK TOZA VA ARZON QUVVAT MANBAI

Oʻzbekistonda gidroelektr stansiyalari soni qariyb uch barobarga oshirildi

Ahamiyatli jihat shundaki, resurslarga boy mamlakat hisoblangan Oʻzbekiston energetika tizimida ham ana shunday tendensiya kuzatilyapti. Qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishni ragʻbatlantirishga davlat siyosati darajasida eʼtibor qaratilmogʻda. Chunki yurtimizning geografik joylashuvi, tabiiy-iqlim sharoiti qulayligi bois energiyaning muqobil manbalari, ayniqsa, quyosh, shamol va gidroenergetikadan foydalanish istiqboli yuqori. Prezidentimiz parlament va xalqimizga yoʻllagan navbatdagi Murojaatnomada ayni jihatga eʼtibor qaratdi: “yashil” energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish boʻyicha vazifalar belgilab berildi.

“Oʻzbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatidan maʼlum qilinishicha, Murojaatnomada belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, yirik investitsiyaviy loyihalar ijrosiga kirishildi. Bu jarayonda nafaqat yangi GESlar qurish, balki mavjudlarini modernizatsiyalash orqali elektr energiyasi quvvatlarini keskin oshirish chora-tadbirlari koʻrilmogʻda. Aniqlik, Shahrixon GESlar kaskadida hamda Quyi Boʻzsuv GESlar kaskadi tizimidagi quvvatlarni modernizatsiya qilish loyihasi boʻyicha chet ellik kompaniyalar bilan shartnomalar imzolab, amaliy ishlar boshlab yuborildi. Mazkur investitsiyaviy loyihalar doirasidagi texnik va texnologik jihatdan yangilash tadbirlari Xitoyning “Sinohydro Co., Ltd.” hamda “TBEA Co., LTD” kompaniyalari tomonidan amalga oshirildi.

Oʻtkazilgan ochiq va shaffof tender tanlovlari yakunlariga koʻra, belgilangan barcha texnik hamda sifat mezonlariga toʻliq javob bergan, xalqaro miqyosda boy tajriba va yuqori ishonchga ega mazkur nufuzli kompaniyalar gʻolib sifatida eʼtirof

etildi, – deydi “Oʻzbekgidroenergo”

AJ Xorijiy investitsiyalar departamenti boshligʻi Avazbek Zokirov. – Tamonlar oʻrtasida imzolangan kelishuv ikkala loyihani ham tayyor holda topshirish tamoyili asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. Yaʼni loyihalashtirish ishlari, qurilish, texnologik uskunalar va jihozlarni yetkazib berish hamda obyektlarni ishga tushirish – bularning barchasi xorij kompaniyasi tomonidan toʻliq bajariladi. Bu esa GESlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqib, ishlab chiqarish quvvati va umumiy samaradorlik sezilarli darajada oshadi. Yana bir eʼtibori jihat, texnologik boshqaruv tizimlari zamonaviylashtiriladi hamda energetika obyektlarining barqarorligi taʼminlanadi.

Darhaqiqat, birgina Shahrixon GESlar kaskadidagi gidroelektr stansiyalar modernizatsiya qilinishi natijasida uning amaldagi umumiy quvvati 7,6 MVtdan 16,4 MVtga yetkazildi. Buning hisobiga yiliga qoʻshimcha 33 mln. kVt/soat elektr energiya ishlab chiqariladi. Bu 13 mingdan ortiq xonadonlar elektr energiyasi bilan ulzüksiz taʼminlab, 11 mln. kub metr tabiiy gaz va 27,5 ming tonnadan ortiq koʻmir tejiladi degani.

Shuningdek, modernizatsiyalash tadbirlari doirasida Quyi Boʻzsuv GESlar kaskadi tizimining quvvati 27,4 MVtdan 32,4 MVtga yetkazilib, qoʻshimcha ravishda 52,8 mln. kVt/soat elektr energiya ishlab chiqariladi. Natijada 21 mingdan ortiq xonadonlar yil



davomida charogʻon boʻlib, 17 mln. kub metr tabiiy gaz va 40 ming tonnadan ortiq koʻmir iqtisod qilindi. Mana, texnologik yangilanish samarasi, gidroenergetikaning suv ostida bekilib yotgan salohiyati!

Taʼkidlash kerakki, gidroenergetika tizimida roʻyobga chiqarilayotgan shu kabi loyihalar sohaga innovatsion texnologiyalarni ichkil joriy etish, amaliyotga zamonaviy xalqaro standartlarni tatbiq qilishga keng

yoʻl ochmogʻda. “Oʻzbekgidroenergo” AJ boshqaruvi raisining sunʼiy intellektli joriy etish boʻyicha maslahatchisi Ruslan Aytibayevning aytishicha, gidroenergetika tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, sohada raqamli yechimlar va sunʼiy intellektli keng qoʻllash maqsadida “Aqli GES” konsepsiyasi hayotga tatbiq qilindi. Bu borada Xitoy Xalq Respublikasining nufuzli “China Huaneng Group Co. Hong Kong, Ltd.” kompaniyasi munosib hamkor sifatida tanlandi. Sababi, u dunyodagi elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar orasida uchinchin oʻrinda turadi. Uning tarkibida 57 ta shuʼba kompaniya hamda 1 mingdan ortiq gidro, issiqlik va shamol elektr stansiyalari

mavjud boʻlib, yillik energiya ishlab chiqarish quvvati 270 GVtni tashkil etadi.

Ilgari surilayotgan hamkorlik doirasida asosiy ustuvor yoʻnalish sifatida gidrotexnik inshootlar va toʻgʻonlar xavfsizligini sunʼiy intellekt yordamida ulzüksiz monitoring qilish hamda erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish belgilangan, – deydi Ruslan Aytibayev.

Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini va boshqarish tizimlarini avtomatlashtirish, markazlashgan dispetcherlik markazi orqali barcha GESlar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatib borish tizimini ishga tushirish koʻzda tutilmogʻda. Bundan tashqari, yagona GES maʼlumotlar platformasini shakllantirish hamda sunʼiy intellektga asoslangan “katta model” yordamida texnologik jarayonlarni tahlildan oʻtkazish, prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda muqobil energetika istiqboliga qaratilgan bunday loyihalar zamirida ekologik toza energiya ishlab chiqarish hajmini oshirib, Oʻzbekistonning global energiya bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishdek ezu va ulkan maqsad muajssam. Binobarin, soʻnggi yillarda gidroelektr stansiyalari soni qariyb uch barobarga oshirildi. Agar 2017-yilda jami 36 ta GES ishlagan boʻlsa, bugungi kunda ularning soni 100 taga yetkazildi. Boshqachay aytdaganda, qisqa muddatda qoʻshimcha 800 MVt quvvat ishga tushirilib, umumiy oʻrnatilgan quvvat hozirda 2,5 GVtni tashkil etmogʻda.

Muqobil energiyaning ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan afzalligi tufayli u tez orada milliy energetika tizimining drayveriga aylanishi kutilmogʻda. Shubhasiz, bunda gidroenergetika asosiy kuch sifatida namoyon boʻlib, barqaror elektr energiyasi taʼminotida hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Said RAHMON
(“Xalq soʻzi”).



Joriy yildan boshlab “mahalla yetitiligi” orqali aholiga 1 kilogramm pilla qiymatining 35 foizi miqdorida subsidiya, parvarishlash jihozlari va uskunalar xaridiga 20 mln. soʻmgacha ssuda ajratish yoʻlga qoʻyilmogʻda.



Joriy yilda "mahallada sanoat va xizmat" loyihasi orqali **10 ming**dan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalarini ishga tushirish uchun **5 trillion so'm** kredit beriladi.

Har bir mahallada **40 tadan** mikroloyihani amalga oshirib, **360 ming** aholini ishli qilish uchun mahalla bankirlari va hokim yordamchilariga 2026-yilda yana **7,5 trillion so'm** resurs ajratiladi.

Mahalla yoshlarining kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida maktab kutubxonalari har yili **10 million dona** badiiy adabiyot bilan ta'minlab boriladi.

Prezident Murojaatnomasidan.

“Quyoshliq istasang, kasbi kamol et”

Hazrat Alisher Navoiy “Quyoshliq istasang, kasbi kamol et”, deya naql qiladi. Buyuk ajdodlarimizning ezgu g'oyalardan quvvat olgan Mingchinor mahallasi ahli azaldan zargarlik bilan shug'ullanib keladi. Shu bois ushbu mahallada “Gavhar Group” korxonasini tashkil etdik. Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonamizda 75 yigit-qiz mana shu afsonaviy kasbning nozik sir-asrorlarini egallab, milliy naqsh va zamonaviy dizayn uyg'unligida jilo sochuvchi zargarlik buyumlarini ichki va tashqi bozorga chiqarmoqda. Eng muhimi, bu qo'ligul yoshlarning ko'pchiligi mingchinorlik hunarmandlaridir.

Uzuk, sirg'a, bilakuzuk va boshqa turli taqinchoqlar, shuningdek, oltin quymalar, umuman olganda, korxonamizda zargarlikning barcha mahsulotlari ishlab chiqariladi. Shu orqali yiliga 1 200 kilogrammgacha zargarlik buyumlari sanoat usulida

tayyorlanadi. Tabiiyki, bozor iqtisodiyoti sharoitida sifatga alohida e'tibor qaratamiz va bu davlatimiz tomonidan o'z e'tirofini topayotir. 2022-yilda Buxoro shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalida “Eng yaxshi zargarlik

korxonasi” nominatsiyasida birinchi o'rinni qo'lga kiritdik. Shu yilning o'zida korxonamizning “Gavhar Group” brendi O'zbekiston zargarlar uyushmasi tomonidan mamlakatning eng yaxshi zargarlik brendi, deya e'tirof etildi. 2023-yilda esa mazkur nufuzli umvonga ketma-ket ikkinchi bor savozor bo'ldik. Hunarmand xodimlarimizning bir mahallada yashab, o'zaro do'stona munosabatda mehnat qilayotgani jamoadagi birdamlik muhiti va barcha yutuqlarimizning asosidir.

Omilbek TILLABOYEV,
“Gavhar Group” zargarlik korxonasi rahbari.
Yangi Namangan tumanidagi Mingchinor mahallasi



Xalfa shunchaki kuylamaydi

Tobora rivojlanib borayotgan dunyoda ko'p yumushlar qatorida qo'shiq kuylash ham oson bo'lib boryapti. Mashhur qiziqchi bir hangomasida lutf etganidek, alifbodagi harflarni aytasangiz, bas, kompyuterning o'zi qo'shiq qilib beradi. Shunday sharoitdayam, baribir, ayniqsa, xalfachilik oson emasligi ayon bo'lib boradi.



Darhaqiqat, xalfachilik – shunchaki qo'shiq aytish emas. Bu orqali xalqning yuragiga quloq tutiladi, odamlarning dardu quvonchi, orzu-u umidlari kuyga solinadi. Xorazmda ayol qo'shiqchilar “xalfa” deb atalishi ham bejiz emas. Chunki xalfalar ovozida ona allasi, el-yurt duosi, asrlar silsilasida yashab kelayotgan milliy tafakkur mujassam.

Repertuarimiz – xalqning qalbiday keng. Maxtmuqli va Munisning hikmatli satrlari, Ojiza xalfaning nasihatomuz she'rlari, “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G'arib va Shohsanam”, “Hurliqo va Hamro” kabi dostonlar – bularning barchasi ming-ming yillar osha bizga yetib kelgan madaniy meros va zimmamizdagi qarzdor. Ular yangrayotganida, o'tmish va bugun

o'rtaasida ma'naviy ko'prik quriladi, go'yo.

Xiva shahridagi Ichan qal'a mahallasida yashab, ijod qilish ham sharaflil, ham mas'uliyatli. Bu mahalla – mening ilk sahnam, birinchi tinglovchim, dastlabki olqishim ham. Shuning uchun mahallamizdagi biror to'y yoki bazmni chetlab o'tgim kelmaydi. Mahalladoshlarim meni “Zumrad xalfa” deya chorlaganida, hayotimdagi katta e'tirofni eshitgandek bo'ldim.

Shu kunlarda Xivada oltmishdan ziyod xalfalar ijod qiladi. Har biri xalqona kuy-qo'shiqlar orqali milliy san'atning cho'g'ini o'chirmay, uni nasldan-nasliga yetkazib kelmoqda. Madaniy merosning bu cho'g'ini his etgan xorijlik sayyohlar ham Xorazmning qadimiy san'ati jozibasiga maftun bo'lib, miriqib tinglaydi, samimiy olqishlaydi. O'z navbatida, shonli tariximiz bilan yuzma-yuz keladi.

Garmon sadosi bor ekan, xalq mehri bardavom ekan, xalfachilik ham abadiy yashaydi. Zero, xalfachilik – sahna bilan cheklanib qoladigan san'at emas.

Zumrad MADRIMOVA,
“Xiva xalfalari”
folklor-etnografik xalq ansambli rahbari.
Xiva shahridagi Ichan qal'a mahallasi

Uzilmagan uzumlar oshyoni

Ota-bobolarim bog'bon o'tishgan. Bugun men davom ettiryapman – oilaviy silsila shunday bardavomlik tusini olgan. Mahalladoshlarimiz ham otamning ko'p yillik tajribalariga tayanib, uzum ko'chatlari parvarishlaydi. Ya'ni Ko'lbo'yi mahallasida olti yuzdan ortiq xonadonlar bo'lsa, aholining qo'shimcha daromad manbai ham, dasturxonlar to'kinligi va turmush farovonligining asosiy omillaridan biri ham uzumchilik.

Ilgari bobolarimiz uzumni xonalarda, mix yoki shiftlarga osib saqlab kelar edi. Bugungi kunda biz tokning o'zini issiqxona shaklida o'rab, shingilni yangi hosil pishgunga qadar asrash usulini joriy qildik. Bu innovatsion yondashuv nafaqat mahsulotni saqlash, balki ajdodlarimizdan qolgan aql-zakovatni zamon talabiga mos tarzda davom ettirishga xizmat qilmoqda.

Tomorqamizda 3 tonnaga yaqin uzum

yangi hosil pishgunga qadar saqlanadi. Bahor oylarida bunday asralgan uzum yaxshigina narxga sotiladi. Tajribamizni ziyodi bilan qo'llagan Abdurahmon G'afurov, Abdurasul Karimov, Muxtorali O'rinboev kabi tadbirkorlar katta iqtisodiy ko'rsatkichlarni qo'lga kiritmoqda.

Ko'lbo'yilik mirishkorlar tajribasini ommalashtirgan qo'shni Chinortagi mahallasi aholisi ham qishki bozorga



ishkomdan hozirgina uzilgan uzumlarini peshma-pesh yetkazmoqda. Kelgusida farzandlarimiz ham bobolari e'zozlagan hunarni yanada ziynatlab, tomorqa orqali ro'zg'origa baraka, mahalladoshlari dasturxoniga fayz kiritishda davom etishiga ishonaman.

Husanboy G'AFUROV,
bog'bon.
Oltiriq tumanidagi Ko'lbo'yi mahallasi

Xorijlikning hayrati



Bugun ustaxonamizga turli mamlakatlardan sayyohlar keladi. Yaqinda yaponiyalik mehmon so'zanalrimdan biriga qariyb yarim soat tikilib turdi. Hayronligim oshdi: u bu naqshlardan nimanidir izlayotgandek edi. Keyin Yevropadagi muzeylardan birida shunga o'xshash naqshni ko'rgani, bu naqsh juda qadimiy bo'lib, ajdodlarimiz devorlarga chizgan suratlarda ham uchrashini aytdi. Bu gaplar qalbimni iftixorga to'ldirdi.

G'ijduvon an'anaviy kashtachiligining yurtimizda va xorijda shuhrat qozonishining asosiy sabablaridan biri tabiiy bo'yoqlardan foydalanilishidir. Shotut mevasi, anor po'chog'i, yong'oq po'sti, piyoz po'stlog'idan olinadigan ranglar kashtaga tabiiy nafosat va tiriklik bag'ishlaydi. Bu usul ota-bobolardan meros bo'lib qolgan qadimiy qadriyatdir. Tabiiylik esa kashtaga nafaqat rang, balki ruh ham beradi.

Bugun mahallamizdagi 40 nafar ayolga

kashtachilikning nozik sir-asrorlarini o'rgatib kelyapman. Quvonarlisi, yashab turgan joyimiz “kashtachilar mahallasi” deb ataladi. Bu nom biz uchun ham sharaf, ham ilhom manbaidir. Chunki har bir ignaning nozik harakati bilan ajdodlarimiz xotirasi, millatning orzu-umidlari naqshga aylanadi.

Mavluda NARZULLAYEVA,
kashtado'z.
G'ijduvon shahridagi Qo'rg'on mahallasi

Halollik beshigi

Mahallamizdagi sakkiz yuzdan ziyod oilalarda uch yarim mingdan ko'proq aholi doimiy istiqomat qiladi. Ularning barchasi ahil-inog aka-ukalardak yashaydi. Hech bir uyning og'ili bo'sh emas. Deyarli har xonadonda qo'y-eghki, sigir-buzoq bor. Shu bois dasturxon fayzli, farzandlar sog'lom: sut, qatiq, qaymoq hech qachon uzilmaydi. Alalxusus, bizning qo'y qatig'imizni ichmabsiz – bu dunyoga kelmabsiz.

Torqopchig'oyda ota-bobolardan qolgan yana

bir noyob udum hozirgacha saqlanib kelmoqda. Bu qo'y yoki echki so'yilib, uning qorniga “gupi”da pishitilgan sof yog'ni solib, yoz oylarida tog'dagi g'orlarda asrash odatidir. Oqtosh tog'idagi kamar(g'or)larga qo'yilgan sariyog' to qishgacha saqlanadi.

Negaki, bu joydagi havo harorati juda salqin – zamonaviy texnologiyalar asosida ishlaydigan yirik muzlatkichlardan sira qolishmaydi. G'orga kirgan kishi shu zahoti salqinlikni his qiladi.

Qishloqning yarim oilasi 10 – 15 kilolab sariyog'ni mana shu g'orlar bag'riga qo'yadi. G'orning eshigi ham, qulfi ham yo'q – ochiq yog'da saqlanadi. Ammo shu paytgacha bironiy holda saqlanayotgan yo kamayib qolganini hech kim eshitgan emas.

Bu yerda halollik – qonun emas, hayot tarzi. U ota-bobolardan meros bo'lib, qondan-qonga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadimiy qadriyat. Bizning mahallamiz mana shunday halollikning beshigidir.

Abdivohid SATTOROV,
Dehqonobod tumanidagi “Torqopchig'oy” MFY raisi.

Hayot darsxonasi

Sentob – insoniyat sivilizatsiyasiga beshik tutgan ko'hna maskan. Qariyb uch ming kishi yashaydigan bu qishloqning tarixi bir necha uch mingyilliklarni qamrab olsa, ajab emas. Bu qadimiy go'sha hozirgi kunda o'zgarish va evrilishlar manziliga aylangan. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar qadr topmoqda.

Qishloqda qadimiy udumlar va ko'hna hunarlar avloddan-avlodga o'tib kelyapti. Azaliy uslub va shakllarni saqlagan holda g'ilam to'qish an'anasi izchil davom etayotgani misolida buning tasdig'ini ko'rish mumkin. Ushbu an'ana nafaqat milliy hunarmandchiligimizning yorqin namunasi, balki xalqimizning sabr-toqat hamda ajdodlar merosi va hunariga bo'lgan muhabbatning amaliy ifodasidir. Sayyohlar sevib iste'mol qiladigan Sentob shiraki taomi esa o'zining qadimiyligi va betakror ta'mi bilan alohida ajralib turadi.

Milliy qadriyatlarning darz yetmasdan bugungi kungacha yetib kelishida bu yerda yashovchi ziyoli

mahalladoshlarimizning hissasi beqiyos. Qolaversa, xalqimizning yuksak aql-idroki, o'tkir tafakkuri va tarixga ehtiromi tufayli Sentob qishlog'i Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasida “Eng yaxshi turizm qishlog'i” sifatida e'tirof etildi. Bu yuksak baho, avvalo, yurtimizda milliy qadriyatlar umrboqiyilgini ta'minlashga qaratilayotgan davlat siyosatining hosilasidir.

Sentob – bu faqat qishloq emas, balki jonli tarix, asrlar osha davom etayotgan ma'naviy qadriyat va kelajak avlodlarga o'nak bo'ladigan hayot darsxonasidir.

Bobojon QOSIMOV,
Nurota tumanidagi “Sentob” MFY raisi.

O'tmish va bugun tutashgan nuqta

Xalqimiz chinorni “hikmatli daraxt” deya o'zgacha mehr bilan parvarishlaydi. Buning zamirida o'tmishga hurmat jo bo'lsa, ajab emas. Balki shuning uchundir mahallamizda chinorlar ko'p. Ammo shu chinorlar orasida qariyb ming yilni yelkasida ko'tarib turgan, salobati bilan qalbgga hayrat soluvchi bitta chinor borki, uni tirik tarix deyish mumkin. Bu chinorning bo'yi 26 metrga yetgan, tanasining aylanasi esa 21 metrni tashkil etadi. Uning har bir halqasi – bir asr, har bir shoxi – xotira.



O'tgan asr boshlarida bu chinorning keng kavagi bolalar savod chiqargan maktab vazifasini bajargan. Keyinchalik qishloq kengashi idorasi ham shu yerda joylashgan. Bir muddat qadim chinorning bag'ri kutubxona ham bo'ldi, savdo do'koni vazifasini ham bajardi. Hozirgi kunda esa u tarixiy yodgorlik sifatida davlat muhofazasiga olinib, mo'jaz muzeyga aylantirildi.

Mana shu kabi tabiat mo'jizalari bilan o'tmish va bugunni tutashtirib turgan qishlog'imiz “Turizm mahallasi” maqomini olgan. Hozir muhozaa kelsak, sayyohlik qishlog'imizning azaldan iqtisodiy manbai bo'lgan ekan. So'lim go'shadagi mahallamizda xizmat ko'rsatish shoxobchalari, oilaviy mehmon uylari barpo etilganidan so'ng buning hadisini oldik. Hozirgi kunda 35 ta mehmon uyi sayyohlar xizmatida. Qadimiy suv tegirmoni qayta tiklanib, unda dastlabki un ishlab chiqarish texnologiyasi sayyohlarga ko'rgazmali tarzda namoyish etilyapti. Shu yerning o'zida undan turli taomlar tayyorlash jarayoni sayyohlar uchun amaliy mashg'ulotga aylanib, mehmonlarning qiziqishini yanada oshirmoqda.

Mirzaqul SHAMSIYEV,
Boysun tumanidagi “Sayrob” MFY raisi.

2026/2027 o'quv yilidan pedagogika oliygohlarida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim dasturlari xalqaro ilg'or tajribalarga mos ravishda takomillashtiriladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir S. Mamirov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 03.00 Topshirildi – 03.30 1 2 3 4 5 6